

O‘ZBEK XALQ MAQOLLARINING TASNIFI VA SEMANTIK TADQIQI

Umida TADJIYEVA

katta o‘qituvchi

Oriental universiteti

Toshkent, O‘zbekiston

e-mail: umida.fayziyeva@mail.ru

Annotatsiya

Ushbu maqolada o‘zbek xalq maqollarining mavzuiy guruhlarini hamda ularning semantik tadqiqi yoritilgan. Shuningdek, ma’lum bir tushunchalar asnosida yuzaga kelgan, o‘zbek xalqining milliylik va qadriyatlarini o‘zida aks ettiruvchi maqollarga misollar keltirilgan.

Tayanch so‘zlar: xalq maqollari, semantika, tasnif, non uzvli, milliy qadriyatlar, lug‘aviy-mazmunli guruh.

КЛАССИФИКАЦИЯ И СЕМАНТИЧЕСКОЕ ИЗУЧЕНИЕ УЗБЕКСКИХ ПОСЛОВИЦ

Умида ТАДЖИЕВА

Старший преподаватель

Университет Oriental

Ташкент, Узбекистан

e-mail: umida.fayziyeva@mail.ru

Аннотация

В данной статье описаны тематические группы узбекских народных пословиц и их семантическое исследование. Также приведены примеры пословиц, возникших в контексте определенных понятий и отражающих национальность и ценности узбекского народа.

Ключевые слова: народные пословицы, семантика, классификация, хлеб, национальные ценности, лексико-содержательная группа.

O‘zbek xalq maqollari o‘ziga xos semantik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Xalq og‘zaki ijodi bo‘lmish maqol, matal, so‘z o‘yinlari, qochirimlar tushunarli tilda, ortiqcha bezaklardan xoli, lekin mazmun-mohiyati chuqurligi bilan e’tiborni tortadi. O‘zbek xalq maqollarida xalqimizning hayotga, tabiatga, inson, oila va jamiyatga munosabati, ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy, axloqiy-estetik va falsafiy qarashlari to‘la-to‘kis namoyon bo‘ladi. Shuning uchun ham maqollar g‘oyatda keng tarqalgan bo‘lib, asrlar davomida jonli so‘zlashuv va o‘zaro nutqiy munosabatlarda, badiiy, tarixiy va ilmiy asarlarda, siyosiy va publitsistik adabiyotda doimiy ravishda qo‘llanib kelinmoqda. O‘zbek maqollari tasnifi masalasi bugungi kunda o‘z yechimini kutayotgan mavzu hisoblanadi.

O'zbek xalq maqollarini lingvistik jihatdan o'rgangan olim B.Jo'rayeva ularni bir necha jihatdan tasnif qiladi. Xususan, shakllanish omiliga ko'ra semantik jihatdan hayvon nomlari asosida shakllangan, kasb-kor asosida shakllangan, diniy tushunchalar, uy-ro'zg'or tushunchalari, vaqt nomlari, o'simlik nomlari, o'zbek xalqi turmushi voqeligi asosida, tabiat hodisalari nomi asosida shakllangan maqollar tarzida turlarga ajratadi [1:145]. Maqollar shakllanish asosiga ko'ra iboralar asosida, folklor janrlari asosida, e'tiqodiy tushunchalar, xalq udumlari, xalq o'yinlari, hadislar asosida shakllangan maqollar kabi tasniflanadi [1:79].

Tilshunos I.Mirzaaliyev maqollarni quyidagi 16 ta mavzuiy guruhga ajratadi: 1. Birlik va hamjihatlik haqidagi maqollar. 2. Bilimlilik va bilimsizlik haqidagi maqollar. 3. Dangasalik va mehnatsevarlik haqidagi maqollar. 4. Vaqt va hayot tarzi bilan bog'liq maqollar. 5. Manmanlik haqidagi maqollar. 6. Xoinlik haqidagi maqollar. 7. Kishining or-nomusi haqidagi maqollar. 8. Erkinlik, ozodlik haqidagi maqollar. 9. Rizq-nasiba haqidagi maqollar. 10. Halollik haqidagi maqollar. 11. Kishi taqdiri haqidagi maqollar. 12. To'g'riso'zlik haqidagi maqollar. 13. Kishining fe'l-atvori haqidagi maqollar. 14. Ezgulik bilan bog'liq maqollar. 15. Qarindosh-urug'chilik haqidagi maqollar. 16. Tenglik haqidagi maqollar [2:15].

Shu mavzuiy guruhlar ichida o'zbek xalqining o'ziga xos jihatlaridan bo'lmish mehmondo'stlik, yaqinlarga hurmat, nonni e'zozlash, tuzga munosabat kabi masalalarni aks ettirgan maqollar alohida o'rin tutadi. Masalan, "*Non yemasning ishiga boq!*", "*Non pishguncha kulcha kuyadi*" kabi bir necha maqollar to'g'ri va majoziy, ya'ni tag ma'noga ham ega. Chunonchi, "*Non pishguncha kulcha kuyadi*" maqolini "*Katta to'qoch pishguncha kichik to'qoch kuyibdi*" varianti ham bor. *To'qoch* so'zi *kulcha non* degan ma'noni anglatadi. Mazkur maqol asli "*Tandirga yopilgan katta nonga issiq o'tguncha kulcha qizaradi, non qizarguncha kulcha kuyib ketadi*" degan mazmunni anglatadi. Olimlar bu maqolning majoziy ma'nosini "... akasi uylanguncha ukasi yoxud opasi erga tekkuncha singlisi shoshib ketadi" tarzida izohlaydilar. Shunday hollarda mazkur maqolni istehzo, hazil-mutoyiba tarzida qo'llaydilar" deb izohlaganlar.

Bizningcha, uning majoziy mazmuni kengroq: bunda birlamchi, asosiy ishni bajarguncha ikkinchi bir yumushning kechikishi, qolib ketishiga ishora bor. *“Non nonvoyda, kaliti – osmonda”, “Non qo‘ynimda, it keynimda”, “Non qadrini och bilar, kiyim qadrini – yalang‘och”* kabi maqol-u matallarda nonni topish qiyin va mushkulligi xalqona qiyoslar bilan ta’kidlanib, insonni mehnatsevarlikka, halollikka chorlov kuzatiladi: *“Non yemoqchi bo‘lsang, o‘tin tashishdan erinma!”*, *“Ter to‘ksang, don to‘kasan, Don to‘ksang, non to‘kasan”*, *“Hunar bo‘lsa qo‘lingda, non topilar yo‘lingda”*, *“Hunari yo‘q – non gadoyi”*, *“Hunarmandning noni butun”*, *“Mardning noni butun”* kabi.

O‘zbek tilida non uzvli maqol va matallarning ko‘pligi boshqa xalqlar qatori o‘zbeklarda ham qadim-qadimdan nonni eng aziz, eng muqaddas, eng ulug‘, eng bebaho ne‘mat sifatida qadrlanishi bilan bog‘liq milliy qadriyatlar natijasidir. Yana shuni ta’kidlash joizki, xalqimiz juda ko‘p yuksak insoniy hislatlarni ham non uzvli maqollar vositasida ana shunday ulug‘ ne‘matlarga ishora qilish, qiyoslash asnosida uqtiradi [10:57].

Shuningdek, o‘zbek xalq maqollarida hayvon nomlari asosida yoxud diniy marosimlar natijasida yuzaga kelgan maqollar mavjud. Hayvon nomlari doirasida shakllangan o‘zbek xalq maqollari, odatda, hayvonlarning tabiati, fe‘l-atvori, tashqi ko‘rinishi, harakati, tovushi, harakat tarzi, biologik xususiyati asosida yuzaga kelgan. Bu esa og‘zaki ijod mahsuli bo‘lmish maqollarning o‘sha xalq hayoti, turmush tarzi bilan chambarchas bog‘liq ekanligini yana bir karra isbotlaydi. Hayvon nomlari bilan bog‘liq maqollar faol hayvon nomlarining ijtimoiy shartlangan ma’nolariga ko‘ra “it”, “ot”, “qoramol”, “tuya”, “qo‘y”, “echki”, “eshak”, “parranda” va “hasharot” lug‘aviy-mazmunliy guruhga ajratiladi [1:133]. Ma’lumki, maqollardagi hayvon nomlari inson sifatlarini ifodalovchi bo‘lib xizmat qiladi. Masalan: sher mardlik; tuya sabr-matonat; eshak va ho‘kiz befahmlik va befarosatlik; bo‘ri qonxo‘rlik; sichqon, kalamush, chigirtka, chumchuq tekinxo‘rlik; chumoli mehnatkashlik; qurbaqa maqtanchoqlik; burgut, lochin, shunqor dovyuraklik, gul qiz, qovun, bug‘doy, olma yaxshi odam; qovoq, arpa, kurmak esa yomon odamlar timsolidir.

O‘zbek xalqi turmushi hamda kasb-kori doirasida shakllangan maqollarning asosini, odatda, har bir kasb egasi yaratadigan mahsulot, o‘sha kasb doirasida kechadigan hayot tarzi bilan bog‘liq voqea-hodisalar tashkil etadi. Masalan, boshqalarning hojatini chiqarish uchun tinmay mehnat qilib, o‘zining yumushini ado etishga esa vaqt topa olmaydigan holat kosib bilan bog‘liq “Etikdo‘zning etigi yirtiq”, bo‘zchi bilan bog‘liq “Bo‘zchi belbog‘ga yolchimas”, kulol bilan bog‘liq “Kulol mo‘ndida suv ichar” kabi maqolllar bilan ifodalangan. Bu maqollar turli kasb-kor bilan bog‘liq bo‘lsa-da, mazmunan bitta fikrni ifodalashga xizmat qiladi. Ushbu holatda maqollar variantlilik kelib chiqqanini ko‘rish mumkin. Astasekinlik bilan bir kasb doirasida paydo bo‘lgan maqol falsafiylikka ega bo‘lib, umumlashma holatlarga nisbatan qo‘llaniladigan bo‘lib qolgan. Diniy tushunchalar doirasida shakllangan maqollarning asosini diniy marosim, diniy atama va diniy shaxs nomlari tashkil etadi [1:65].

Uy-ro‘zg‘or tushunchalari doirasida shakllangan maqollar uy-ro‘zg‘or buyumlari va mahsulotlari nomi asosida paydo bo‘lgan. Bir guruh maqollar vaqt nomlari asosida paydo bo‘lgan bo‘lib, bunda vaqtni ifodalovchi kun, hafta, oy, yil, burj, fasl nomlari shakllantiruvchi asos vazifasini bajargan. O‘simlik nomlari asosida shakllangan maqollar mevali daraxtlarda mevasining ta‘mi, foydaliligi, ularni terib, yig‘ib olish bilan bog‘liq mashaqqatli mehnati va hokazolarga; mevasiz daraxtlarda esa ularning tashqi ko‘rinishi, chidamlilik darajasi kabilarga asoslanadi. Umumiy “daraxt” leksemasi asosida shakllangan maqollarda bo‘lsa, daraxtning, asosan, o‘simlik jihatiga diqqat qaratiladi [1:65].

Hadislar ham maqollarning paydo bo‘lishi va taraqqiyotida ma‘lum darajada ta‘sir ko‘rsatgan, aniqrog‘i, hadislar jonli so‘zlashuv jarayonida qayta ishlanib, yanada ixchamlashib, obrazlilik kasb etgan holda xilma-xil maqollar shaklida faolroq qo‘llana boshlagan. Masalan, Abdulloh ibn Umardan rivoyat qilinadigan “Alloh Taoloning rozi bo‘lishi otaning rozi bo‘lishiga va uning g‘azabi ham otaning g‘azabiga bog‘liqdir” mazmunli hadis mavjud. U xalq ijodida “Ota rozi – xudo rozi”, “Ota norozi – xudo norozi”, “Ota oldida kek urma, odobingga chek

urma”, “Ota oldidan o‘tma, odob oldidan ketma”, “Ota o‘g‘li bo‘lsang, ota nomini baland tut” singari o‘nlab maqollarning yuzaga kelishiga turtki bo‘lgan [5:284].

Xalq maqollarining yana bir guruhi qardosh va yondosh yashaydigan xalqlarga munosabat asosida paydo bo‘lgan. Bunday maqollar o‘zbek va boshqa xalqlar xarakteridagi xilma-xillikni ko‘rsatishga xizmat qiladi. Masalan, ikki qardosh xalq – qirg‘iz va o‘zbekka xos azaliy odatni e‘tiborda tutgan “O‘zbek boyisa, uy solar, qirg‘iz boyisa, mol olar” maqoliga e‘tibor qilsak. Maqolda ikki xalq xarakteri qiyoslangan. Maqolning tag ma‘nosida o‘zbek va qirg‘izning hayot tarziga kinoya mavjud. Aksar xalqlarda o‘zini hurmatlash, o‘zini yaxshi ko‘rish, o‘zi uchun qayg‘urish birinchi o‘rinda turadi. Ularda o‘z xotirjamligi, sog‘ligini barcha narsadan ustun sanash hissi bor. Shu bois puli ko‘paysa, uni yana ko‘paytirish, daromadini oshirish payida bo‘ladi. Biroq O‘rta Osiyo xalqlari bunday emas. Ayniqsa, o‘zbeklar bolalarining ertasi bilan yashaydi. Maqolning “O‘zbek boyisa, uy solar” tarzidagi birinchi qismida xalqimizning ana shu qayg‘usi ifodalangan. Bizning xalqimiz bolam-chaqam deydigan xalq. Ne mashaqqat bilan pul topsa ham, uni o‘ziga emas, bolasiga sarflaydi. Maqol mazmunida shunga ishora bor. Maqolning ikkinchi qismida qirg‘iz xalqiga xos xarakter ochiladi. “Qirg‘iz boyisa, mol olar” bu qismda qirg‘iz xalqi kamsitilmaydi. Balki ularning chorvador xalq bo‘lgani, ko‘pincha ko‘chib yurgani bois kichik o‘tovda yashab ketaverishi o‘zbeklar uchun ibrat tarzida ko‘rsatilgan. Shuningdek, uy solishdan ko‘ra, mol olish iqtisodiy ahvolni o‘nglashga yordam berishiga ishora qilingan [1:51]. Demak, ko‘rish mumkinki, turli millat vakillariga xos holatlar qiyoslash natijasida maqollarga ko‘chgan.

Maqollar tuzilishiga ko‘ra, bir va bir necha sintaktik butunliklar asosida tashkil topadi. Bir sintaktik butunlikdan iborat maqollar, odatda bir qismli maqollar sanalib, ko‘pincha darak gap shaklida bo‘ladi: “*Ayol tilini ayol bilar*”, “*Arg‘amchiga qil – quvvat*”, “*Vatanni sotgan er bo‘lmas*”, “*Gavhar yerda yotmas*”, “*Yomon it egasini qopar*”, “*lshni ishchandan o‘rgan*” kabi. Ko‘p sintaktik butunlikdan iborat maqollar esa ko‘p qismli yoki murakkab maqollar deb yuritiladi. Bunday maqollar bir-biriga o‘xshash yoki zid fikrlar bayonidan iborat

bo‘ladi. Aksariyat maqollar ikki qismdan tashkil topgan; bir qismi tasviriy mohiyatga ega bo‘lsa, ikkinchi qismi xulosadan iboratdir: “*Aytmas yerda og‘zingni tiy, mehmonga borsang nafsingni*”, “*Bulbulning sayrashini guldir, mehr xazinasi tildir*”, “*Bug‘doy noning bo‘lmasin, bug‘doy so‘zing bo‘lsin*”, “*Yolqitsa ham, yog‘ yaxshi, yondirsa ham, yoz yaxshi*”, “*Ishonish bilan kasal bo‘lsang, umid qilsang, tuzalasan*” kabi yuzlab maqollarda ikkinchi qismi zarbli va asosiy o‘gitni ifodalaydi [1:66]. Demak, maqollar sintaktik jihatdan sodda yoki qo‘shma gap shaklida bo‘lishi mumkin. Qo‘shma gap shaklidagi maqollarda ikkita voqea-hodisa qiyoslanadi va umumlashma fikr ifodalashga xizmat qiladi.

Har bir maqolning vujudga kelishida ibratli voqealarning ahamiyati kattadir. Ana shunday hayot lavhasiga guvoh bo‘lgan dono odamlardan biri ko‘rgan-kechirganlariga xulosa yasab, maqolnamo gapni o‘ylab topgan. Keyinchalik hayotiy vaziyatning takrorlanishi oqibatida birinchi aytilgan fikr asta-sekin maqolga aylangan. Tajriba shuni ko‘rsatadiki, xalq orasida maqolning yashashi uchun hayotiy asos bo‘lishi kerak. Bunday asosga ega bo‘lmagan maqolning umri qisqadir. Jumladan, o‘zbeklarda “*Yer haydasang, kuz hayda, kuz haydamasang, yuz hayda*” maqoli mashhur. Ammo bu maqol Xorazm viloyatining aksariyat hududlarida tilga olinmaydi. Chunki Xorazmda yer qatlami tuzilishida yer osti suvlari yaqin bo‘lganligi sababli dehqonchilik bilan shug‘ullanadigan odamlar o‘z yerlarini kuzda haydamaganlar. Ma‘lum bo‘ladiki, faqat hayot tajribasida tasdiqlangan vaziyat haqidagi maqol xalq orasida yashaydi [4:27].

Shuningdek, o‘zbek xalqining urf-odatlarini, qadriyatlarini, milliyligini anglatuvchi bir necha maqollar mavjud: *Baxmal bilan banotning ko‘hnaligi bo‘lmas, Ota bilan onaning* – qariligi. *Kimxob to‘ning bo‘lguncha, oltin beshiging omon bo‘lsin*. Baxmal va banot so‘zi gazlama nomini bildirib, O‘zbekiston (Buxoro va Samarqand) da qadimdan ishlab chiqariladi. Kimxob ham qimmatbaho mato bo‘lib, uni to‘qish Buxoro, Shahrisabz, G‘ijduvon shaharlarida qadimdan rivojlangan. Beshik esa chaqaloqni belash uchun ishlatiladigan mahsus belanchak. *O‘zi kelgan yor-yor, o‘zi ketar yor-yor*. Yor-yor nikoh to‘yi marosimlarida aytiladigan xalq qo‘shig‘i, qadimdan o‘zbek, tojik, turkman, uyg‘ur xalqlari

orasida keng tarqalgan. Ushbu maqol uyiga arazlab ketib qolgan kelinlarga ishlatiladi. *O'zbekka osh yaxshi, Qozoqqa – go'sht, Umringdan bir kun qolguncha, osh ye, Pulingdan bir tiyin qolguncha, osh ye, Mehmon kelsa, pastga tush, Palov bermoq ahdga tush.* Palov yohud osh o'zbek oshxonasining eng asosiy taomlaridan hisoblanadi. Uyga mehmon kelganda ham uni palov bilan mehmon qilish an'anaga aylangan. Shuningdek, mehmon kelganda uni uyning to'riga o'tqaziladi, mezbona esa dasturxonning past qismida o'tiradi. Mana shunday urf-odatlar, qadriyatlar asnosida yuzaga kelgan maqollar o'zbek xalqiga hos bo'lgan milliylikni anglatadi.

O'zbek xalq maqollari tiliga e'tibor qaratadigan bo'lsak, unda badiiy san'atlarning juda ko'p ishlatilganini kuzatamiz. Tilshunos I. Mirzaaliyev "Devonu lug'ati-t-turk" asarida qo'llanilgan maqollarda alliteratsiya, tazod, tashbeh, tashxis kabi badiiy tasvir vositalaridan ham unumli foydalanilganini aytib o'tadi [2:26]. O'zbek olimlaridan K. Imomov, T. Mirzayev, B. Sarimsoqov va O. Safarovlar maqollarda eng ko'p uchraydigan badiiy vositalarni quyidagicha tasniflaydi:

1. Tazod (zid qo'yish). Olimlarning fikricha, o'zbek maqollarida eng ko'p uchraydigan vositalardan biri tazod (zid qo'yish) hisoblanadi. Buning bosh sabablaridan biri voqelikning tabiatidagi ziddiyatni aks ettirish orqali tomonlardan biri yo tasdiqlanadi, yo inkor etiladi. Odatda, maqollardagi tazod usulida voqelikning turli-tuman xossalari: hajmi, rangi, bo'yi, uzunligi, masofa kabi jihatlar qarama-qarshi qo'yiladi.

Masalan: *Do'st achitib gapirar, dushman kuldirib.*

Xullas, tazod san'ati xalq maqollarida keng qo'llanilganligi sababli maqollarni semantik tasnif etishda har bir obrazning ijobiy va salbiy jihatlarini teng hisobga oladi. Masalan: yaxshilik va yomonlik, do'stlik va dushmanlik, mehnatsevarlik va dangasalik kabi mavzular.

2. Metafora (istiora) xalq maqollarida ko'p uchraydigan badiiy-tasviriy vositalardan biridir. U badiiy adabiyotda qisqacha o'xshatish deb ham yuritiladi. Maqollarda istioraviy ko'chimlar asosan yetakchi semantik vazifani bajaradi. Masalan: "*Et bilan tirnoqni ajratib bo'lmas*" maqolidagi "et va tirnoq" so'zlari yaqin qarindosh-urug', og'a-ini o'rtasidagi yaqinlikka ishora qiladi. Folklorshunos

olimlarning fikricha, maqoldagi asosiy mazmunni keng bayon etish, uning mohiyatini atroflicha sharhlashga maqol tabiatidagi lo'ndalik va ixchamlik yo'l bermaydi. Shuning uchun ham mazkur janrda metaforik yasvir juda qo'l keladi.

3. Mubolag'a san'ati. Maqollarda xalq tajribasida sinalgan ezgu g'oyalar kuchaytirilib, xalq idealiga mos kelmaydigan xislatlar salbiy jihatdan bo'rttirib tasvirlanadi. Bunday holatlarda biz maqollarda mubolag'a san'ati qo'llanilganini ko'ramiz. Masalan: "*Nafsi buzuk hayitda o'lar*" maqolida xalq idealiga mos kelmaydigan ochko'zlik, nafsi buzuklik qoralanadi. Bu esa shunchaki oddiy baholash emas, balki xalqning g'oyaviy-estetik bahosi sifatida keltiriladi. Xalq idealida qoralangan narsa hech qachon ijtimoiy hayotda yashamasligi lozim.

4. Jonlantirish. O'zbek xalq maqollaridagi jonlantirish usuli juda muhim vositalardan biridir. "*O'tin ayirgan bolta maydonda qolar*" maqolini tahlil qilsak, bu yerda jonsiz predmet "bolta" haqida so'z ketyapti. Aslida bolta biror narsani kesish, o'tin yorish uchun yaratilgan predmet. U o'z-o'zidan o'tin yorolmaydi. Mohiyat jihatidan bolta – adolatsiz, odam ayiradigan shaxslarga qarata ishlatiladi. Maqoldagi axloqiy-falsafiy mazmun "o'tin ayiradigan bolta" obrazi orqali ifodalangan [1:54].

O'zbek xalq maqollarining mavzuiy guruhlari ham, ularning struktura va semantikasi ham nihoyatda rang-barangdir. Bu o'rinda maqollar ustida olib borilayotgan izlanishlar xalq madaniy merosini yanada boyitish va mustahkamlash uchun xizmat qiladi [1:55].

Umuman olganda, o'zbek xalq maqollaridagi turli mavzuiy guruhlar asosiy bir bo'g'in – o'zbek xalqi mentaliteti atrofida birlashadi. Shuningdek, maqollar xalqlar orasidagi do'stona munosabat, umummilliy qadriyatlarni ifodalaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Jo'rayeva B. O'zbek xalq maqollari shakllanishining lingvistik asoslari va pragmatik xususiyatlari: : Filol. fan. doktori (DSc) ... diss.. – Toshkent, 2019.

2. Mirzaaliyev I. Qadimgi turkiy maqollar semantikasi va stilistikasi. ("Devonu lug'ati-t-turk" materiali misolida): Filol.fan. bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoref. – Toshkent, 2020.

3. Rahmatov Y. Maqol va uning o'zbek mumtoz adabiyotidagi evolyutsiyasi: Filol. fan. doktori (DSc) ... diss. – Toshkent, 2023.

4. Sulaymonov M. O'zbek xalq og'zaki ijodi (Akademik litseylar uchun o'quv qo'llanma). – Namangan, 2012.

5. Safarov O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. – Toshkent: Musiq, 2010.

6. Садриддинова М. Лексика узбекских пословиц и поговорок: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1985

7. Пинхасов Я.Д. Ўзбек тили фразеологияси хакида. – Тошкент: Ўқитувчи, 1957.

8. Пермяков Г.Л. От поговорки до сказки (Заметки, по общей теории клише). – М., 1970. Паремнологические исследования. – Москва: Наука, 1984.

9. Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. Ma'nolar maxzani. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2001.

10. O'zbek tilining izohli lug'ati. 3-jild. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008.